

## JAHON SAN`ATIDA SYUREALIZMNING YUZAGA KELISHI

*Urinbayeva Laylo Marat qizi*

*O`zDSMI "Kino va televideniye rejissorligi" iztisosligi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada syurealizm oqimining yuzaga kelishi haqida yozilgan. Unda ushbu oqimning o`ziga xos hususiyatlari batafsil izohlangan. Shu bilan birga uning jahon san`atiga ko`rsatgan ta`siriga to`xtalib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** avangard, dadaizm, syurealizm, san`at, adabiyot, kino, asar.

Avangard – XX-asrning 20-yillar o`rtalarida Fransiyada paydo bo`lgan oqim. Ushbu oqim uchun ijodga eksperimental yondashuv va novatorlik fikr vositalaridan foydalanish xos.

Avangard davrini uchta "to`lqin" ga bo`lish mumkin. Birinchisi –kinoimpressionizm, ikkinchisi – dadaizm va surrealizm, uchinchi – documentalizm.

Tadqiqot ishida impressionizm va dokumentalizmga batafsil to`xtalib o`tilmaydi, chunki bu oqimlar ilmiy ish mavzusiga to`g`ridan-to`g`ridan-to`g`ri aloqasi yo`q. Dadaizmni qisqacha ko`rib chiqish kerak, chunki bu yo`nalishdan syurrealizmning kelib chiqqan deb hisoblash mumkin.

Dadaizm – 1916-yilda Shveysariyada avval rassomchilikda va adabiyotda vujudga kelgan san`at yo`nalishi. Dadaizm asoschilari: shoirlar – Tristan Tzara, Richard Gulzenbek, Gugo Ball, rassomlar – Hans Arp, Marsel Yanko. Ularning badiiy usulining asosi – epataj (to`palon qilishga moyil xulq-atvor). Dadaistlar an`anaviy namunani buzib, badiiy asarlarda yangi turdagi munosabatlarni yaratishga intildi.

Dadaizmning asosiy qoidalari:

- Umumiy qabul qilingan ma`naviy qonunlarni va kitobxonning o`quvchilik didini buzish;
- Nigilizm barcha, hatto o`z qarashlarni ham inkor etish;
- Hodisalar va buyumlar o`rtasidagi alohida maxsus aloqalarni tashqi formal shakllar, o`xshashliklar, so`z o`yinlari va boshqalar asosida aniqlash.<sup>1</sup>

Kinematografiyada dadaizm vakillari Man Rey ("Sog`lom fikrlashga qaytish"), Fernan Leje ("Mexanik balet"), Rene Kler ("Antrakt") va boshqalarni tilga olib o`tish joiz.

"O`z tajribalari va vazifalari haqida gapirganda, dadaistlar "Buyuk hech narsa" kelishi uchun an`anaviy badiiy obrazlilikning buzilishini ma`lum qilib, ularning asar namunalari hech qanday ma`no yo`q ekanligini ta`kidlab, aynan shu ma`nosizlikni yangi san`at turi deb qabul qilinishini talab qilishdi"<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> По Виноградов В. Силевые направления французского кинематографа. – М.: Каннон +, 2010. – 384 с.- С. 84

<sup>2</sup> По Виноградов В. Силевые направления французского кинематографа. – М.: Каннон +, 2010. – 384 с.- С. 91.

Surrealizm dadaizmning paradoksalligini qabul qiladi.

Syurrealizm (frans. *surrealisme* – o‘ta realizm) – XX asrning 10-20-yillarida fransuz adabiyotida paydo bo‘lib, tasviriy san‘at, haykaltaroshlik, teatr, kino sohalariga, keyinchalik boshqa mamlakatlar (Belgiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, AQSH, Meksika, Yaponiya)ga ham tarqalgan avangardlik yo‘nalishi. Markiz de Sad, J. Nerval, shuningdek, A. Rembo, Lotreamondan A. Jarri, G. Apolliner va S. Reverdiga qadar bo‘lgan yozuvchilar ijodi Syurrealizmning paydo bo‘lishida manba vazifasini o‘tagan. Ushbu oqim vakillari aqliy faoliyatdagi, hatto jamiyat hayotidagi shakllangan tizimni tubdan o‘zgartirish da‘vosi bilan chiqqanlar. Syurrealizmning yangi adabiy yo‘nalish sifatida maydonga kelishida "Litterature" ("Adabiyot", 1919 -24) jurnali muhim rol o‘ynadi. Bu jurnali atrofida birlashgan L.Aragon, L.Breton, F.Supo kabi yozuvchilar bu oqimga asos soldilar. Ko‘p o‘tmay, ular davrasiga P.Elyuar, R.Desnos, A.Arto va boshqa kelib qo‘shilishdi.

Syurrealizm miyaga ilk bor kelib qolgan so‘z, nutq parchalari, turli-tuman xayollarning dastlabki, kutilmagan bir holatdagi ajabtovur shaklini har qanday ijodiy faoliyatning xamirturushi, asosi, deb e‘lon qilgan. Syurrealistik teatr (asoschisi A.Arto) va kinematografiyada ham ayrim sahna va kadrlarning bir-biri bilan mantiqsiz bog‘lanishi va umuman aql-zakovat doirasidan chetga chiqish "haqiqiy reallik" sifatida tan olingan.

Dastlab syurrealistlarning turfa to‘garagiga usbu oqimning isyonkorlik ruhiga uchgan, tevarak-atrofdagi dunyo tartibotini xush ko‘rmagan, insonning jamiyatdagi hayotida uchrab turadigan qiyinchiliklarni o‘rganish va bartaraf etish xayoli bilan yashagan yirik yozuvchilar ham a‘zo bo‘lishgan. Syurrealizmning ijtimoiy tizimni kayta qurish haqidagi niyati afsonavor uydirma ekanligini tushungan, uning estetikasidagi badiiy asarga xos ma‘nodorlik va yaxlitlikning bekor qilinganini ko‘rgan katta iste‘dod egalari syurrealistlar safini tark etganlar. 30-yillarning oxiriga kelib, mistikaga oshkora ravishda berilgan A.Breton boshchiligidagi ayrim shoirlargina bu oqimga sodiq bo‘lib qoldilar va ular safi taqlidchilar hisobiga kengaydi. 40-yillarning boshlarida A.Breton, S.Dali, I.Tangi va boshqalarning muhojirlikka ketishi bilan Syurrealizmning markazi AQShga ko‘chdi. Fransiyada uni qayta tiklashga qaratilgan urinish samara bermadi.

Syurrealizm adabiy-badiiy yo‘nalish sifatida o‘z umrini o‘tagan bo‘lsada, uning gullagan davrida ishlab chiqilgan ayrim badiiy usul va vositalardan tasviriy san‘at, teatr va kinodan tashqari, amaliy san‘atda ham istifoda etilmoqda.

Surrealizm Fransiyada 1920-yillarda vujudga keladi. Dadaizm singari, dastlab bu yo‘nalish adabiyot va rassomchilikda yuzaga keladi. Uning asoschisi va nazariyotchisi yozuvchi va shoir Andre Breton hisoblanadi. 1924-yilda "Styrealizm manifesti" nomli qo‘lyozmasi chiqib, unda Breton syurrealizmga "toza psixologik avtomatizm" deb ta‘rif beradi. Uning yozishicha bu oqim har qanday fikrni og‘zaki, yozma, umuman turli yo‘llar bilan ifodanishi mumkin bo‘lgan oqimdir. Fikrining har qanday nazoratdan ya‘ni, estetik yoki axloqiy qonuniyatlardan tashqari tashqari bayon etilishi"<sup>3</sup>.

Shuni ta‘kidlash o‘tish kerakki, "surrealism" atamasini birinchi marta 1917-yilda Guillaume Apolliner tomonidan "Yangi ruh" manifestida ishlatilgan. Breton bu nomni san‘atda o‘z yo‘nalishini belgilash uchun vaqtinchalik foydalanish maqsadida qo‘llab, unga yangi ma‘no qo‘shadi. "Apolliner hali to‘liq shakllanmagan syurrealizm harfigagina ega bo‘lib, uni nazariy

<sup>3</sup> Бретон Андре. Манифест сюрреализма: [электронный ресурс]. – Электронные текстовые данные. – [Б.м.], 2002-. – Режим доступа: <http://www.staratel.com/pictures/surreal/manifest.htm>

asoslab berolmadi<sup>4</sup>. – deb yozadi Breton.

Surrealizm g`oyasini ilgari suruvchilar san`atdagi yangi yo`nalishni orzu va haqiqat o`rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishi mumkin, deb hisoblagan edi.

Surrealistlar ong ustidan ongni bilish primatini e`lon qilishdi, shu sababli Z. Freyd psixoanaliz nazariyasiga qiziqish uyg`ondi, lekin bu qarash hamma surrealistlarga xos emas edi, xususan, Rene Magritt ushbu konsepsiyaga ancha shubha bilan qaradi.

Surrealistlarning fikricha, ijodiy energiya, ongli o`ylashdan tashqari kelib chiqqan, shuning uchun uning namoyon bo`lishining eng yorqin lahzalari, trans yoki gipnoz holati, og`riqli bema`nilik va boshqalar hisoblangan.

Breton va uning izdoshlari tomonidan tadqiq qilingan eng muhim texnika avtomatik xat bo`ldi. Shoir bu usul bilan ishlashning dastlabki tajribasini shunday tasvirlaydi: “Menga ham, hozir ham shunday tuyuldi <... >, – fikrning tezligi nutq tezligidan oshmaydi va u so`zlash akti yoki yozuvchiga imkonsiz emas. Aynan shunday ma`naviy holatda men o`z ilk xulosalarim haqida ma`lum qilgan Filipp Supo bilan birgalikda qog`ozni o`ylarimiz bilan to`ldirishni boshladik. Bizni yozayoatganlarimizdan adabiy asar chiqishi mumkin ekanligi umuman qiziqtirmas edi. Qolgan ishlar osonlik bilan amalga oshirildi. Birinchi kun kechga yaqin bir-birimizga ko`rsatilgan usulda yozilgan ellik sahifalarni o`qib, natijalarni solishtirishga kirishishimiz mumkin edi. Umuman, Supo hamda mening natijalarim yaqqol o`xshashlikka ega bo`ldi: bir xil kompozitsion kamchiliklar, bir xil buzilishlar, biroq, ikki ishdan ham go`yat ajoyib taassurot, chuqur emotsionallik, shunchalik yuqori sifatdagi obrazlarning ko`pligi. Xulosa qilib shin aytish mumkin ediki, uzoq va izchil ishlar natijasida ham bunday o`ziga xos tasviriy ifodaviylikka boy, har yerda g`aroyib komik effektga ega asar yarata olmagan bo`lardik.”<sup>5</sup>

Surrealistlar tomonidan tez-tez ishlatiladigan yana bir mashhur usul – bu kollaj, uning yordamida mutlaqo kutilmagan obrazlar birlashtirilgan.

Surrealistlar an`anaviy madaniyatni rad etib, yangisini yaratishga intilishdi.

Yuqorida aytilganidek, surrealizmning yana bir muhim xususiyati — epotajlik (to`palon qilishga moyil xulq-atvor). Surrealistlar radikal yangi, inqilobiy, san`atdagi yo`nalishni e`lon qilish va oldingi davrlar madaniyatini inkor etish bilan cheklanmagan, ular an`anaviy san`at, axloq, din va ijtimoiy-iqtisodiy idoralarga ochiqchasiga murojaat qilib, o`zlarining qarashlarini shov-shuvli bayon qilishgan. Shundan kelib chiqqan antiestetizmni ko`pincha surrealistlarning she`riyatiga xosligini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, Breton va uning tarafdorlari tomonidan yaratilgan san`at asarlariga mantiqsizlik xos bo`lib, unda alohida absurd mantiqni kuzatish mumkin.

Freydizmga qiziqish ortganligi bois, erotik motivlarga ko`p murojaat qilinadi.

Freyddan tashqari, surrealistlar tomonidan faol qiziqish uyg`otgan shaxs markiz de Sod bo`lgan. Ushbu shaxs ularning e`tiborini o`zining janjalkash va noodatiylikda mashhur bol`ganligi bilan jalb etgan. A. Breton o`zining “Surrealizm manifesti”da Sadni “Sadizmda surrealist”<sup>6</sup> deb atadi. Uning

<sup>4</sup> Бретон Андре. Манифест сюрреализма: [электронный ресурс]. – Электронные текстовые данные. – [Б.м.], 2002-. – Режим доступа: <http://www.staratel.com/pictures/surreal/manifest.htm>

<sup>5</sup> Бретон Андре. Манифест сюрреализма: [электронный ресурс]. – Электронные текстовые данные. – [Б.м.], 2002-. – Режим доступа: <http://www.staratel.com/pictures/surreal/manifest.htm>

<sup>6</sup> Бретон Андре. Манифест сюрреализма: [электронный ресурс]. – Электронные текстовые данные. – [Б.м.], 2002-. – Режим доступа: <http://www.staratel.com/pictures/surreal/manifest.htm>

ta'siriga syurrealizm estetikasiga xos bo'lgan qattiqqo'llik ko'rinishini aytish mumkin. L.Bunyuelning "Oltin asr" asarining finali esa markiz de Sodning "Sodomning 120 kuni" romanidagi epizodning ekranlashtirilgan holatidir.

Har qanday davr va har qanday yo'nalishdagi san'at uchun qiziqarli bo'lgan tug'ilish va o'lim mavzulari syurrealistlar tomonidan ham e'tiborsiz qoldirilmaganligini ta'kidlash kerak.

Adabiyotdagi syurrealizmning asosiy vakillari sifatida A.Breton, F.Supo, L.Aragon, A.Arto, rassomchilikda – S.Dali, R.Magritt, M.Ernst va boshqalarni sanab o'tish joiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. По Виноградов В. Стилиевые направления французского кинематографа. – М.: Каннон +, 2010. – 384 с.
2. Бретон Андре. Манифест сюрреализма: [электронный ресурс]. – Электронные текстовые данные. – [Б.м.], 2002-. – Режим доступа: <http://www.staratel.com/pictures/surreal/manifest.htm>